



## Anvarjon Erqo'ziyev

Namangan davlat universiteti dotsenti,  
tarix fanlari nomzodi.

E-mail: [anvarercouziyev1979@gmail.ru](mailto:anvarercouziyev1979@gmail.ru)

### BUXORO XONLIGI KARVONSAROYLARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17605711>

**Annotatsiya.** Maqolada Buxoro xonligida savdo ishlarining asosiy ob'ekti misolida mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti tahlil etiladi. Tadqiqotda tarixiylik, uzviylik, qiyosiy tahlil, ketma-ketlik hamda xolislik metodlaridan foydalanilgan. Tashqi savdoning rivojlanishi hamda siyosiy maydonda mamlakat qudratining ortib borishi bilan mamlakatga kelgan elchiliklar, tijorat ahlining vaqtinchalik yashash manzili karvonsaroylar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'rnini tahlil etiladi. Shuningdek, bojxona ishi, boj tizimi manbaviy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari Buxoro xonligida savdo-iqtisodiy faoliyatda muhim o'rin tutgan karvonsaroylarning davlatchilik tizimidagi ahamiyatini ko'rsatib bergan.

*Kalit so'zlar:* karvonsaroy, hunarmand, xiroj, tanob, zakot, tranzit, savdo boji, xususiy savdo, mol ayirboshlash “qizil mol”, “bojgir”.

**Kirish.** Tarixan iqtisodiyot har qanday mamlakatning qudratini ta'minlagan. Qadimgi iqtisodiy munosabatlar savdo-sotiqdan iborat bo'lib, savdo tizimidagi bojxona faoliyati, karvonsaroylar xizmati, yo'llar xavsizligi masalalari o'z ahamiyati bilan bir-birini to'ldiradi. Karvonsaroylar muhim ijtimoiy ob'ekt sifatida savdo tizimining asosini

tashkil etib, jamiyatning siyosiy-iqtisodiy ehtiyojiga, ijtimoiy-ma'naviy dunyoqarashida muhim o'rin tutgan.

**Asosiy qism.** Buxoro xonligi iqtisodiy hayotining yetakchi sohalaridan biri bu yerda rivojlangan hunarmandchilik bilan uzviy bog'langan savdo edi. 1696 yilda Buxoroga kelgan tobolsklik kazak Fyodor Skibin o'z xotiralarida Buxoro aholisi haqida “odamlari jangari emas, hunarmand va savdogardir”, - deb yozgan edi [6:266 b]. Ichki savdoning rivojlanishi oqibatida Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shahrisabz kabi shaharlarning iqtisodiy qudrati, shuningdek ichki va tashqi, hamda tranzit savdo markazlari sifatidagi ahamiyati ham ortib bordi. XVI asrda Buxoroda bo'lgan Antoniy Jenkinson, “shaharda har yili Hindiston, Eron, Balx, Rossiya va boshqa mamlakatlardan katta karvonlar bilan keluvchi savdogarlarning yig'ini bo'ladi”, - deb ko'rsatgan edi [3:184 b].

Buxoro xonligi davlat xazinasini foydalanilayotgan yerdan olinadigan xiroj va tanob hamda savdo mollaridan undiriladigan zakot hisobiga to'ldirib borilgan. Zakot, poytaxtga kelayotgan va undan tranzit holatida ketayotgan har bir karvondan ham undirilar, shu sababli zakotchilar karvonlarning aniq harakat vaqtlari xususida muhim ma'lumotlarga ega edilar. Savdo soliqlari maxsus zakot saroylarida hujjatlashtirilib, karvondagi har bir tuya, unga yuklangan mollarning hajmi, turi, tarkibi, og'irligi, egasi hamda to'langan boj miqdori ko'rsatilgan yorliq rasmiylashtirilgan. Albatta bu xizmatlar uchun ham savdogarlar haq to'laganlar. Bu yorliq tovar xonlikning qolgan barcha aholi yashaydigan joylaridagi daxlsizligiga kafolat berar edi.

XVI-XVIII asrlarda Buxoro xonligida tashqi savdoning uch asosiy shakli mavjud edi:

1. Erkin savdogarlar orqali amalga oshirilgan xususiy savdo;
2. Shoh va xonlarning maxsus vakillari vositachiligida olib borilgan savdo;
3. Hukmdorlar o'rtasida o'zaro tuhfa va hadyalar yuborish yo'li bilan amalga oshiriladigan mol ayirboshlash [8: 68 b].

Savdoning ikkinchi va uchinchi shakli uning birinchi shakliga nisbatan katta imtiyozlarga egaligi va bu xildagi savdo yo'li bilan chetga chiqariladigan mollarning turlari bo'yicha ham farq qilar edi. Qolaversa, shoh va xonlarning tovarlaridan soliq olinmagan, hukmdorlar o'rtasida ayirboshlangan tovarlardan boj undirilmagan.

Hukmdorga in'om qilishga mo'ljallangan mollar, ya'ni sovg'alardan qoidaga ko'ra boj undirilmas, bunday tovarlarga ilova qilingan hujjatlar, ya'ni "rahnomo"lar oddiy muhr bilan emas, balki shohona qizil muhr bilan tasdiqlanganligi bois "qizil mol" deb atalgan [9:70-71 b].

Erkin savdogarlar sotadigan va sotib oladigan mollari uchun boj to'lashga majbur edilar. Bundan tashqari, erkin savdogarlar o'zlarini shaxsiy hayoti va mol-mulklarining xavfsizligi ta'minlangan deb his qilolmas edilar, chunki mamlakatlardagi har bir siyosiy jarayon, voqyea-hodisalar ularga katta zarar yetkazardi. Ular ko'pincha qaroqchilar hujumiga uchrar, mollari talon-taroj qilinardi.

Buxoro xonligida tashqi savdo yuritilishining asrlar davomida shakllangan qonun-qoidolari mavjud edi. Masalan, turli mamlakatlardan Buxoro shahriga yo'l olgan savdo karvonlarining mollari poytaxtga qadar ochib tekshirilmagan. Bu bilan poytaxt shaharning tranzit hamda iqtisodiy imkoniyatlarini mustahkamlash, savdogarlar uchun yengillik yaratish nazarda tutilgan bo'lsa kerak.

Buxoroda shahar aholisining ayrim vakillari savdo karvonlaridan boj undirish faoliyati bilan shug'ullanib, "bojgirlar" deb atalgan. Shaharlardagi bojxonalar faoliyati oliy hukmdorga yaqin qarindoshlar tomonidan nazorat qilingan bo'lsa, poytaxtda bu ish boshida qo'shbegi (vaziri buzruk, ya'ni bosh vazir) turgan.

O'zga yurtlardan Buxoro xonligi shaharlariga yo'l olgan karvonlardan boj va zakot undirishning o'z tartib-qoidolari mavjud bo'lgan. Xususan, eng avval, shaharga yaqinlashgan karvon o'zi haqida xabar yuborishi, "zakot-saroylar"dan karvon uchun zakotchi vakil ajratilishi, hamda shahar karvonsaroylari haqida ma'lumot so'rash ushbu tartiblarning muhim qismi bo'lgan.

XVI – XVIII asrlarda Buxoro xonligi shaharlarining yirik savdo markazlari sifatidagi ahamiyatini oshirishni ta'minlagan omillardan biri – shaharlarda mavjud bo'lgan va soni o'sib borgan karvonsaroylar edi. Xorijiy savdogarlarning shaharlarda to'xtashi, muntazam yashab turishi va o'z mollarini saqlashi uchun zarur bo'lgan bu inshootlar xonlar, amirzodalar, yirik hukmdorlar, davlat amaldorlari, Buxoro jamiyati hayotida roli nihoyatda kuchli bo'lgan musulmon din peshvolari, yirik savdogarlar va sarmoyadorlarning shaxsiy mulklari bo'lgan. Masalan, Jo'ybor shayxlari tomonidan XVI asrda rasmiylashtirilgan hujjatlardan ma'lum bo'ladiki, Buxoro shahri karvonsaroylarining barchasi yirik hukmdorlar va oliy nasab shaxslarga tegishli bo'lgan. Xususan, shahardagi karvonsaroylardan biri shayboniy hukmdorlardan Ubaydullaxonning safdoshi amir Latif Mirakka tegishli bo'lgan bo'lsa, yana bir karvonsaroy esa amirzoda Mirza Tursun Muhammadga qarashli bo'lib, u "Sarroflar karvonsaroyi" nomi bilan ham mashhur bo'lgan [1:200 b].

Shahar karvonsaroylari ko'p hollarda, tartib-qoidalariga binoan, XVI – XVIII asrlar mobaynida ham egalari tomonidan ma'lum masjid va madrasalar foydasiga vaqf etilgan. Shuningdek, karvonsaroylar ba'zi hollarda ijaraga ham berilib, ijarachi uning egasiga ma'lum miqdorda ijara haqi to'lagan va inshootni boshqargan.

Odatda, karvonsaroylar pishiq g'ishtdan qurilib, har bir shaharning me'moriy yechimida o'ziga xos o'рни bilan ajralib turgan. Jumladan, Buxorodagi Govkushon karvonsaroyining hujralari pishiq g'ishtdan qurilganligi, uning joylashgan o'рни, atrof imoratlar orasida salobati shahar me'morchiligining ko'rki bo'lganligi XVI asrga oid manbalarda qayd etilgan [4: 91 b]. Karvonsaroylar qurilishida yog'och va paxsadan ham keng foydalanilganligi ularni sifatlash chog'ida, manbalarda, "yog'och karvonsaroylar", "paxsa karvonsaroylar" tarzida qayd etilgan.

Karvonsaroylar bir va ikki qavatli tarzda bunyod etilib, poytaxt Buxoroda keng urf bo'lgan shakli ikki qavatli karvonsaroylar edi. Buxoro karvonsaroylarining ko'pchiligi yagona reja-tarx asosida qurilgan bo'lib, barcha karvonsaroylar uchun ikki qavat tarzda kvadrat shaklidaligi, tashqi

devorlari shahardagi ko'pgina boshqa binolar kabi derazalarga ega bo'lmaganligi bir xil xususiyat edi. Birinchi qavat chuqur va qorong'u yuk saqlash xonalargiga mo'ljallangan bo'lib, ularning eshigi hovliga qaragan. Ikkinchi qavat esa tamaddi qilish, tunash, kundalik ibodatni ado etish uchun sharoitlari bo'lgan hujralardan iborat edi. Bunday sharoitli karvonsaroylarda asosan yirik va xorijlik savdogarlar to'xtab o'tganlar. Karvonsaroyga kirish va chiqish qat'iy nazoratda bo'lib, faqat bir katta darvozadan kirib chiqilgan.

Bir qavatli, yog'och va paxsadan qurilgan karvonsaroylar, hajm jihatidan birmuncha kichikroq bo'lib, ular ko'pincha ma'lum mahsulot yoki xomashyo turini saqlash uchun omborxona vazifasini ham o'tagan.

Karvonsaroylarda ichki hovlida do'konlar hamda tashqi devorlarida darcha rastalar tashkil etilib, chakana savdoni amalga oshirishga imkoniyat yaratilgan. XVI asrga oid hujjatlarning birida Buxorodagi "Sarroflar karvonsaroyi" da joylashgan do'konlar eslatib o'tiladi [5:89 b]. Shuningdek, ushbu karvonsaroyda savdogarlarning otlarini saqlash uchun otxonalar ham mavjud bo'lganligi to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi [5:90 b].

Buxoro xonligiga kelgan xorijiy savdogarlar odatda qaysi mamlakatdan kelganliklariga qarab, ma'lum karvonsaroylarda yashaganlar. Shaharlardagi xorijiy savdogarlarning katta qismini hindlar tashkil qilar edi.

Shahar karvonsaroylari nafaqat xorijiy savdo ahli ehtiyojlariga xizmat qilibgina qolmay, balki mahalliy savdogarlarning faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etardi. Bu yerda mahalliy savdogarlar o'z mollarini saqlar va ular bilan ulgurji savdoni amalga oshirar edilar.

Karvonsaroylarning yana shunday bir turi ham mavjud bo'lib, ular odatda boshqa saroylarda hajm jihatidan kichikligi bilan ajralib turardi. Ularda asosan kambag'al yo'lovchilar, yuksiz savdogarlar, o'z tuyalarida yuk tashuvchilar to'xtar edilar.

Karvonsaroylar nafaqat savdogarlar to'xtaydigan va o'z mollarini saqlaydigan joygina bo'lib qolmay, ularda ba'zi hollarda ma'lum mahsulot turini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hunarmandlar ham ham yashaganlar.

Buxoro xonligida karvonsaroylarning mavjudligi va sonining muttasil o'sib borishi natijasida shaharlarning hudud iqtisodiy hayotidagi ahamiyati ortib borgan.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, XVI – XVIII asrlarda Buxoro xonligi cavdosining ichki, tranzit va tashqi shakllari xonlik shaharlari iqtisodiy hayotida katta o'rin egallagan edi. Siyosiy barqarorlik yillarida Buxoro shaharlarida savdoning bu turlari keng rivoj topdi va iqtisodiy hayotning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Aksincha, siyosiy nomutanosibliklar mavjud bo'lgan davrlarda esa savdo izdan chiqqan.

Savdo turlarining rivojlanishi natijasida Buxoro xonligining Buxoro, Samarqand kabi yirik shaharlari Sharq tijorat dunyosining yirik markazlariga aylandilar va tadqiq etilayotgan davr mobaynida ularning iqtisodiy imkoniyatlari kengayib bordi. Savdoning va savdo aloqalarining rivojlanishi oqibatida iqtisodiy jihatdan rivojlanib borgan markazlar boshqa shaharlar taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdilar. Savdoning, ayniqsa, tranzit va tashqi savdoning rivojlanishi ayrim hunarmandchilik turlarining ravnaqiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Oqibatda, ayrim shaharlarning ma'lum bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarish va sotishga ixtisoslashuv jarayoni tezlashdi. Bu esa iqtisodiy aloqalarning rivojlanib, shaharlararo o'zaro mehnat taqsimoti ravnaq topib borishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Агзамова Г. А. XVI – XIX асрнинг биринчи ярмида Ўзбекистон шаҳарлари ва шаҳарлар ҳаёти: Тарих фан. док. ...дисс. – Т.: ЎЗР ФА ТИ, 2000.
2. Байкова Н. Б. Роль Средней Азии в русско-индийских торговых связях (первая половина XVI – вторая половина XVIII вв.). – Т.: Фан, 1964.
3. Дженкинсон А Путешествие в Среднюю Азию в 1558 – 1560 гг. // Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке / Пер. с англ. Ю. В. Готье. – М.: ОГИЗ, 1937.



4. Иванов П. П. Хозяйство джуйбарских шейхов. К истории феодального земледения в Средней Азии в XVI – XVII вв. / Пер. Е. Э. Бертельса. Док. №3. – М.-Л.: Изд. АН СССР, 1954.
5. Иванов П. П. Иванов П. П. Хозяйство джуйбарских шейхов. К истории феодального земледения в Средней Азии в XVI – XVII вв. / Пер. Е. Э. Бертельса. Док. №2. – М.-Л.: Изд. АН СССР, 1954.
6. Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. – М.-Л.: Изд. АН СССР, 1932.
7. Путешествие Антония Дженкинсона в Бухару (1558-1560) // История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов и учёных XVI – первой половины XIX в. / Сост. Б. В. Лунин. Кн. 1. – М.: Фан, 1988.
8. Чулошников А. Торговля Московского государства с народами Средней Азии в XVI – XVII вв. // Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Часть 1. – Л., 1932.
9. Юлдашев М. Ю. К истории торговых и посольских связей Средней Азии с Россией в XVI – XVIII вв. – Т.: Фан, 1964.
10. Иванов П. П. Хозяйство джуйбарских шейхов. К истории феодального земледения в Средней Азии в XVI – XVII вв. / Пер. Е. Э. Бертельса. Док. №3. – М.-Л.: Изд. АН СССР, 1954.
11. Иванов П. П. Иванов П. П. Хозяйство джуйбарских шейхов. К истории феодального земледения в Средней Азии в XVI – XVII вв. / Пер. Е. Э. Бертельса. Док. №2. – М.-Л.: Изд. АН СССР, 1954.

## КАРАВАНСАРАИ БУХАРСКОГО ХАНСТВА

**Аннотация.** В статье на примере торговли в Бухарском ханстве анализируется социально-политическая и экономическая жизнь страны. В исследовании использованы методы историзма, системности, сравнительного анализа, последовательности и объективности. Рассматриваются развитие внешней торговли, рост могущества государства на политической арене, прибывающие в страну посольства, временные места проживания торговцев —

караван-сарай, а также их роль в социально-экономической жизни. Кроме того, на основе источников проанализированы таможенное дело и система пошлин. Результаты исследования показывают значение караван-сараяв, игравших важную роль в торгово-экономической деятельности Бухарского ханства, в системе государственности

*Ключевые слова:* караван-сарай, ремесленник, хирадж, танаб, закят, транзит, торговая пошлина, частная торговля, товарообмен, «красный товар», «сборщик пошлин».

### CARAVANSARAIS OF THE BUKHARA KHANATE

**Abstract.** The article analyzes the socio-political and economic life of the country through the example of trade activities in the Bukhara Khanate. The research employs methods of historicism, systematic approach, comparative analysis, consistency, and objectivity. The study examines the development of foreign trade, the growing power of the state in the political arena, the embassies arriving in the country, and the caravanserais – temporary residences for merchants – as well as their role in the socio-economic life. In addition, customs affairs and the taxation system are analyzed based on historical sources. The results of the study demonstrate the significance of caravanserais, which played an important role in the trade and economic activities of the Bukhara Khanate, within the state system.

**Keywords:** caravanserai, artisan, kharaj, tanob, zakat, transit, trade duty, private trade, barter, "red goods," tax collector.